



UDK: 341.231(575.1)

Jumaniyoz RAMATOV,
Toshkent davlat transport universiteti professori
E-mail: jumaniyoz@gmail.com

YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT BOSQICHIDA INSON HUQUQLARINI TA'MINLASH MASALALARI

Аннотация

Mazkur maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta'minlashning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlari, xalqaro standartlarga moslashuv jarayonlari va fuqarolik jamiyati institutlarining o'rni yoritiladi.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, Yangi O'zbekiston, huquqiy davlat, demokratizatsiya, fuqarolik jamiyati, adolat, erkinlik, xalqaro standartlar.

HUMAN RIGHTS PROTECTION IN THE NEW STAGE OF UZBEKISTAN'S DEVELOPMENT

Annotation

This article provides a scientific analysis of the socio-political and legal foundations of ensuring human rights in the new stage of Uzbekistan's development. The study highlights the reforms being implemented in the country, the mechanisms for protecting human rights, the processes of aligning with international standards, and the role of civil society institutions.

Key words: Human rights, New Uzbekistan, rule of law, democratization, civil society, justice, freedom, international standards.

ВОПРОСЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА НА НОВОМ ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

В данной статье проводится научный анализ социально-политических и правовых основ обеспечения прав человека на новом этапе развития Узбекистана. В исследовании освещаются проводимые в стране реформы, механизмы защиты прав человека, процессы адаптации к международным стандартам, а также роль институтов гражданского общества.

Ключевые слова: Права человека, Новый Узбекистан, правовое государство, демократизация, гражданское общество, справедливость, свобода, международные стандарты.

Kirish. Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta'minlash masalasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanib, jamiyatni demokratlashtirish va huquqiy davlat barpo etish jarayonining muhim tarkibiy qismiga aylandi. So'nggi yillarda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli siyosiy, ijtimoiy va huquqiy islohotlar markazida inson qadri, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda ularga rioya etilishini ta'minlash g'oyasi turibdi. Bu esa inson huquqlarini nafaqat huquqiy, balki ijtimoiy-falsafiy kategoriya sifatida ham chuqur o'rganishni taqozo etadi.

Inson huquqlari har qanday demokratik jamiyatning asosiy mezon bo'lib, u shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat va qonun ustuvorligining muhim ko'rsatkichidir. Zamonaviy ilmiy yondashuvlarga ko'ra, inson huquqlari tizimi jamiyat barqarorligi, fuqarolik jamiyati institutlarining rivoji hamda davlat boshqaruvi samaradorligi bilan uzviy bog'liqdir. Shu bois inson huquqlarini ta'minlash masalasi faqat normativ-huquqiy bazani takomillashtirish bilan cheklanmasdan, balki jamiyatda huquqiy madaniyat va ijtimoiy ongning rivojlantirish bilan ham bevosita aloqador hisoblanadi.

Yangi O'zbekiston konsepsiyasi doirasida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud-huquq tizimini liberallashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirish hamda xalqaro standartlarga mos huquqiy mexanizmlarni joriy etish borasida muhim natijalarga erishilmoqda. Bu jarayonlar inson huquqlarini ta'minlashning yangi institutsional asoslarini shakllantirishga xizmat qilmoqda.

Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta'minlash masalasini ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilish, uning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini aniqlash dolzarb ilmiy vazifa hisoblanadi. Mazkur tadqiqot aynan shu muammolarni kompleks yondashuv asosida yoritishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Inson huquqlari muammosi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda keng qamrovli va ko'p qirrali ijtimoiy-huquqiy fenomen sifatida turli yondashuvlar asosida o'rganilgan. Xususan, xalqaro ilmiy adabiyotlarda inson huquqlari shaxs erkinligi, ijtimoiy adolat va demokratik boshqaruvning asosiy mezon sifatida talqin etilib, uning universalligi va ajralmasligi ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Inson huquqlarining nazariy asoslari, ularning rivojlanish bosqichlari va xalqaro standartlari masalalari ko'plab fundamental manbalarda keng yoritilgan. Jumladan, inson huquqlari umumiy nazariyasiga bag'ishlangan tadqiqotlarda ushbu huquqlar demokratik jamiyat qurilishining muhim sharti sifatida baholanadi, shuningdek, ularning himoyasi va kafolatlanishi davlatning asosiy vazifalaridan biri ekani ta'kidlanadi.

Mahalliy ilmiy adabiyotlarda esa inson huquqlarini ta'minlash masalasi, asosan, Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi doirasida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va huquqiy islohotlar kontekstida tahlil qilinadi. Xususan, mamlakatimizda inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha yaratilgan institutsional tizim, jumladan, Ombudsman instituti, Inson huquqlari bo'yicha milliy markaz hamda boshqa tuzilmalar faoliyati ilmiy jihatdan asoslab berilgan.

Shuningdek, ayrim tadqiqotlarda Yangi O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy asoslari, demokratizatsiya jarayonlari, ochiqlik va shaffoflik tamoyillari hamda gender tenglik masalalari chuqur tahlil qilingan. Ushbu ishlarda inson huquqlarini himoya qilish mexanizmlarining takomillashuvi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida baholanadi.

Bundan tashqari, ilmiy manbalarda inson huquqlari va jamiyat barqarorligi o'rtasidagi uzviy bog'liqlik alohida ta'kidlanib, taraqqiyot strategiyasida inson qadri va uning huquqlarini ta'minlash jamiyat rivojining muhim omili sifatida e'tirof etiladi.

Shu bilan birga, mavjud ilmiy tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarini ta'minlash masalasini ijtimoiy-falsafiy nuqta nazardan kompleks o'rganish, ayniqsa, Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida amalga oshirilayotgan islohotlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil qilish dolzarb ilmiy vazifa bo'lib qolmoqda. Mazkur tadqiqot aynan ushbu ilmiy bo'shliqni to'ldirishga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta'minlash masalasini kompleks yondashuv asosida o'rganishga qaratilgan bo'lib, unda ijtimoiy-falsafiy metodologiya asosiy nazariy tayanch sifatida qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida inson huquqlari fenomeni faqat huquqiy kategoriya sifatida emas, balki ijtimoiy munosabatlar, ma'naviy qadriyatlar va siyosiy institutlar bilan uzviy bog'liq tizimli hodisa sifatida talqin qilindi.

Tadqiqotda quyidagi ilmiy metodlardan foydalanildi:

Tizimli yondashuv – inson huquqlarini ta'minlash jarayoni davlat siyosati, huquqiy tizim, fuqarolik jamiyati institutlari va ijtimoiy ong o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikda tahlil qilindi.

Tarixiy metod – O'zbekistonda inson huquqlarini ta'minlashning evolyutsiyasi, mustaqillikdan keyingi islohotlar va Yangi O'zbekiston konsepsiyasi doirasidagi o'zgarishlar tarixiy ketma-ketlikda o'rganildi.

Qiyosiy tahlil usuli – milliy tajriba xalqaro standartlar va boshqa davlatlar amaliyoti bilan solishtirilib, samarali mexanizmlar aniqlashtirildi.

Ijtimoiy-falsafiy tahlil – inson huquqlari tushunchasi, uning ontologik va aksiologik mohiyati, shuningdek, jamiyat va shaxs o'rtasidagi munosabatlar falsafiy kategoriyalar asosida tahlil qilindi.

Mantiqiy umumlashtirish va tahlil – ilmiy adabiyotlar, normativ-huquqiy hujjatlar hamda empirik ma'lumotlar asosida nazariy xulosalar ishlab chiqildi.

Shuningdek, tadqiqotda inson huquqlari sohasidagi xalqaro hujjatlar, milliy qonunchilik bazasi va amaliy tajribalar o'rganilib, ularning o'zaro uyg'unligi va samaradorligi baholandi. Bu esa inson huquqlarini ta'minlashning zamonaviy mexanizmlarini ilmiy asoslash va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish imkonini berdi.

Mazkur metodologik yondashuv inson huquqlarini ta'minlash masalasini tizimli, kompleks va ilmiy asoslangan tarzda yoritishga xizmat qildi.

Tahlil va natijalar. (Analysis and results). Mazkur tadqiqot doirasida Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta'minlashning asosiy yo'nalishlari, omillari va mexanizmlari kompleks tarzda tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarini ta'minlash jarayoni tizimli va ko'p bosqichli bo'lib, u ijtimoiy-siyosiy, huquqiy hamda institutsional omillar uyg'unligida amalga oshiriladi.

Birinchi, davlat siyosati va strategik islohotlar inson huquqlarini ta'minlashning asosiy determinantlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Xususan, 2017–2021-yillarga mo'ljallangan Harakatlar strategiyasi doirasida jamiyatni demokratlashtirish, qonun ustuvorligini ta'minlash va fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirishga qaratilgan keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Bu esa inson huquqlarini ta'minlashning institutsional asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Ikkinchi, institutsional mexanizmlarning rivojlanishi muhim natijalardan biri sifatida e'tirof etildi. O'zbekistonda inson huquqlarini himoya qilish bilan shug'ullanuvchi maxsus organlar — Oliy Majlisning Inson huquqlari bo'yicha vakili (Ombudsman), Inson huquqlari bo'yicha Milliy markaz va boshqa institutlar faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ushbu institutlar inson huquqlarini himoya qilish, qonunchilikni takomillashtirish va jamoatchilik nazoratini kuchaytirishda muhim rol o'ynamoqda.

Uchinchi, xalqaro standartlarga integratsiya jarayoni sezilarli darajada kuchaygani aniqlandi. O'zbekiston inson huquqlari bo'yicha ko'plab xalqaro hujjatlarga qo'shilib, milliy

qonunchilikni global standartlarga moslashtirish bo'yicha izchil siyosat yuritmoqda. Bu esa inson huquqlarining universal tamoyillarini milliy amaliyotga joriy etishga xizmat qilmoqda.

To'rtinchidan, huquqiy madaniyat va ijtimoiy ongning rivojlanishi inson huquqlarini ta'minlash samaradorligini oshiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ldi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, fuqarolarning huquqiy bilim va madaniyat darajasi oshgani sari inson huquqlariga nisbatan hurmat va mas'uliyat ham kuchayadi.

Beshinchidan, ta'lim tizimi va ma'rifiy faoliyatning roli alohida ahamiyat kasb etadi. Inson huquqlari bo'yicha ta'lim dasturlarini joriy etish, seminar va treninglar o'tkazish, ilmiy va ma'rifiy adabiyotlar yaratish orqali jamiyatda huquqiy ongni shakllantirishga erishilmoqda.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, inson huquqlarini ta'minlash uch darajada amalga oshadi:

normativ-huquqiy daraja (qonunchilik va huquqiy kafolatlar),

institutsional daraja (maxsus organlar va davlat tizimi),

ijtimoiy daraja (fuqarolik jamiyati va ijtimoiy ong).

Mazkur darajalar o'zaro uyg'unlashgandagina inson huquqlarini samarali ta'minlash mumkin bo'ladi. Natijada, Yangi O'zbekiston sharoitida inson huquqlarini himoya qilish tizimi bosqichma-bosqich takomillashtirib, uning samaradorligi oshib borayotgani ilmiy jihatdan asoslandi.

Xulosa va takliflar. Mazkur tadqiqot natijalari Yangi O'zbekiston taraqqiyot bosqichida inson huquqlarini ta'minlash masalasi kompleks va tizimli jarayon ekanligini ko'rsatdi. Inson huquqlari jamiyat taraqqiyotining asosiy mezonlaridan biri bo'lib, u demokratik davlat qurish, ijtimoiy adolatni ta'minlash hamda fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, mamlakatimizda inson huquqlarini ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlar davlat siyosatining ustuvor yo'nalishiga aylangan bo'lib, u huquqiy baza, institutsional mexanizmlar va ijtimoiy ong rivoji orqali izchil amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, sud-huquq tizimini takomillashtirish, fuqarolik jamiyati institutlarini qo'llab-quvvatlash hamda xalqaro standartlarga moslashuv jarayonlari inson huquqlarini himoya qilishning samarali mexanizmlarini shakllantirmoqda.

Shu bilan birga, tadqiqot natijalari inson huquqlarini ta'minlash samaradorligi faqat normativ-huquqiy mexanizmlar bilan cheklanmasdan, balki fuqarolarning huquqiy madaniyati, ijtimoiy faolligi va ma'naviy qadriyatlari bilan uzviy bog'liq ekanligini tasdiqladi. Bu esa inson huquqlarini ta'minlash jarayonida kompleks yondashuv zarurligini ko'rsatadi.

Takliflar:

inson huquqlari bo'yicha ta'lim va huquqiy madaniyatni rivojlantirishni tizimli ravishda kuchaytirish;

fuqarolik jamiyati institutlari va nodavlat notijorat tashkilotlar faoliyatini qo'llab-quvvatlash;

davlat boshqaruvida ochiqlik va shaffoflik mexanizmlarini yanada takomillashtirish;

inson huquqlari sohasida xalqaro tajribani keng joriy etish va milliy amaliyot bilan uyg'unlashtirish;

yoshlar orasida inson huquqlariga hurmat va fuqarolik mas'uliyatini shakllantirishga qaratilgan ma'rifiy ishlarni kengaytirish;

inson huquqlarini himoya qilish bo'yicha institutsional tizim faoliyatini samaradorligini oshirish.

Umuman olganda, Yangi O'zbekiston sharoitida inson huquqlarini ta'minlash davlat va jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi muhim omil sifatida namoyon bo'lmoqda. Ushbu yo'nalishda amalga oshirilayotgan islohotlarni izchil davom ettirish, huquqiy va ijtimoiy mexanizmlarni takomillashtirish orqali inson huquqlari kafolatlarini yanada mustahkamlash mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг - Инсон ҳуқуқлари бўйича Ўзбекистон Республикасининг Миллий стратегиясини тасдиқлаш тўғрисидаги 22.06.2020 йилдаги ПФ-6012-сонли Фармони. (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 23.06.2020)
2. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Инсон ҳуқуқлари бўйича вакили (омбудсман) тўғрисидаги Қонуни // Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлис Ахборотномаси. 2004 йил.
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг - Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисидаги 07.02.2017 йилдаги ПФ-4947-сон Фармони (Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2017 й., 6-сон.
4. Раҳмонкулов Х, Раҳмонов А. Права человека: история и современность. Т., Изд. «Мир экономики и право», 1998. 213 стр.
5. А.Ўтамуродов, Х.Ю.Содиқов, Э.Б.Раимов. Инсон ҳуқуқларини ўрганиш. Услубий қўлланма – Т.: Ўзбекистон Миллий университети, Тошкент - 2020. – 98 б.